ShaffofQurilish

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

**"SHAHRI-KESH
EKSPERTIZA GROUP" MCHJ**

Holati: Ijobiy
Direktor:
Sana: 19-12-2025 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

269474 - SONLI

Obyekt nomi: Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahar, Istiqlol MFY, 6-mitti tuman dahasi hududidan 5 qavatli turar joy binolari qurilishi (2 dona) (qayta ekspertiza)	
Buyurtmachi:	"QARSHI GIPRO NEFTIGAZ STROY" MCHJ
Bosh loyihachi:	"KITOB ARX-DIZAYN" xususiy korxonasi
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	"QARSHI GIPRO NEFTIGAZ STROY" MCHJ
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	105371

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Buyurtmachi tomonidan LSH tayyorlash uchun buyurtma xati.

1.2. Qarshi shahri tumani qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limining 29.10.2025-yilda berilgan № 225745377-sonli ruxsatnomasi.

1.3. Davlat xizmatlari markazining № 225775324-sonli so'rovnomasi.

1.4. Qashqadaryo viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasining 17.09.2025-yil № 1710-1710401-239709-sonli arxitektura-rejalashtirish topshiriqnomasi (29.10.2025-yilda qayta rasmiylashtirilgan).

1.5. Qashqadaryo viloyati qurilishi va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi, Arxitektura va Shaharsozlik kengashi ishchi organining 11.11.2025-yildagi № 226776588-sonli xulosasi.

1.6. Davlat ekologik ekspertizasi markazi Qashqadaryo viloyati filialining 07.11.2025-yil № 01-02/05-4454-sonli davlat ekologik ekspertiza xulosasi.

1.7. Elektr ta'minoti bo'yicha "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ "Qashqadaro hududiy filiali" ning 20.10.2025-yil № 10401118629-sonli, ichimlik suv ta'minoti "Qashqadaryo suv ta'minoti" AJning 20.10.2025-yil № 394-sonli texnik shartlari hamda tabiiy gaz ta'minoti bo'yicha "Hududgazta'minot" AJ ning 02.11.2025-yil № 3608-7369-sonli xabarnomasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Tushuntirish xati, ART (Arxitektura-rejalashtirish topshiriqnomasi) – Kitob.

2.2. Loyiha tarkibiy bayoniga ko'ra "Ishchi loyihaning" elektron yo'nalishida taqdim etilgan loyiha-smeta hujjatlari.

2.3. “GEO DEVELOPMENT ENGINEERING” MCHJ tomonidan berilgan muhandislik geologik sharoitlar to’g’risidagi dastlabki texnik xulosa – Kitob.
2.4. Loyiha tashkiloti "KITOB ARX-DIZAYN" x/k tomonidan taqdim etilgan inshootning teplotexnika hisoboti va energetik pasporti.
2.5. Obyektning joriy narxlardagi hisoblangan qiymati, mahalliy resurslar varaqasi, materiallar sarfi- Kitob.
2.6. Qayta ekspertizadan o’tkazish uchun "QARSHI GIPRO NEFTIGAZ STROY" MCHJ rahbari Sh.Narqulov tomonidan berilgan ma’lumotnoma.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

Bino						
Turi	**Nomi**	**Qavati**	**Qurilish maydoni**	**Umumiy maydoni**	**Xajmi**	**Xonadonlar soni**
Ko'p xonadonli turar joy binosi	1-BLOK	5	341.6	1278.6	7344.4	20
Ko'p xonadonli turar joy binosi	2-BLOK	5	321.55	1198.65	6977.7	20
Jami:			**663.15**	**2477.25**	**14322.1**	**40**

- Qurilishning iqlim zonasi – IV, tashqi havoning harorati +45 Co, -20 C^o
- Normativ qor qoplama vazni - 50 kgs/m^2
- Normativ shamolning bosimi - 38 kgs/m^2
- Seysmik tuman - 7 ball

Qurilish maydoni: Qarshi shahar, Istiqlol MFY, 6-mitti tuman dahasi hududi.
Gidrogeologik xulosa:
Fundament asosida xizmat qiladigan tuproq IGE-2. Sirkli (sug‘linak) tuproq, qumloq qatlamlari bilan, och jigarrang tusda, yer osti suvlaridan pastda, shuningdek kapillyar ko‘tarilish zonasida joylashgan, past g‘ovakli, cho‘kuvchan emas, yumshoq-plastikdan oqimli-plastikkacha bo‘lgan konsistensiyada, karbonat konkretlari qo‘shimchalariga ega. Elementning ochilgan qalinligi 7,1 m dan 8,3 m gacha o‘zgaradi.
Tuproqlarning betonga nisbatan ta’siri “kuchli agressiv”. Fizik-mexanik ko’rsatkichlari γсг=2.68 т/м³, φ=23°, С=8 Кпа. Seysmik hududlarda tuproqning kategoriyasi – uchinchi. Seysmik maydoni – 8 balli.
Talab etiladigan muhandislik tadbirlar:
- KMK 2.01.03-19 talabiga muvofiq zilzilabardoshlikka va korroziyaga qarshi tadbirlar bajarilishi talab etiladi hamda SHNK 2.02.01-98 bo’yicha 2-tip tuproq uchun cho’kmaslikka qarshi talablarni bajarish talab etiladi.
- Qurilish ishlari boshlanishidan oldin “GEO DEVELOPMENT ENGINEERING” MCHJ Qashqadaryo viloyat filiali tomonidan qazilgan kotlovan (transheya) tuproq tarkibi tekshirib qurilsin va muhandis geologning xulosasi olinsin.

Asosiy loyiha yechimlari.
3.1. Arxitektura va rejalashtirish yechimlari.
Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahar, Istiqlol MFY, 6-mitti tuman dahasi hududidan 5 qavatli turar joy binolari qurilishi (2 dona) uchun loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachining xati, loyihalashtirish va arxitektura-rejalashtirish topshiriqnomalari asosida bajarildi.
1-blok:
Arxitektura-rejalashtirish topshiriqnomasiga asosan loyihalashtiriladigan 5 qavatli turar joy binosi bitta kirish joyi (pod’ezd)dan iborat bo‘lib, yerto’lali. Uyning yerto’lasi yashash uchun mo’ljallanmagan, omborxona sifatida foydalanishga xonalar ajratilgan. Yerto’la birinchi qavat pol sathidan – 3,3 m chuqurlikda joylashgan. Binoning 1-5-qavatlari kirish qismi (pod’ezd)da 4 tadan xonadon loyihalashtirilgan. Loyihada turar-joy binolari nomutanosib

shaklda bo’lib, o’lchamlari rejada 18,0 m x 21,4 m.ni tashkil etadi. Qavatlar balandligi pol sathidan shiftgacha - 2,7 m. Turar joy binosining qavat maydonida 1 ta 3 xonali va 3 ta 2 xonali xonadonlar loyihalashtirilgan. Loyihalanadigan binoda 20 ta xonadon joylashgan.

Binoning 5 ta 3 xonali xonadonlarida kirish qismi, 2 ta yotoqxona, umumiy xona, oshxona, xojatxona va yuvinish xonasi loyihalashtirilgan. Binoning 15 ta 2 xonali xonadonlarida kirish qismi, yotoqxona, umumiy xona, oshxona, umumiy sanuzel loyihalashtirilgan Binoning poypesh (tsokol) qismi balandligi - 1,5 m. Qavatlarga chiqib tushish ichki zina orqali amalga oshiriladi. Bosh reja loyihasida atrofni obodonlashtirilgan va ko’kalamzorlashtirish loyihasi ishlab chiqilgan. Yengil avtomashinalar uchun avtoturargoh, bolalar o’ynash maydonchalari, chiqindilarni saqlash maydonchasi, dam olish ayvonchalari joylashtirilgan.

Tashqi pardozlash:

- PPJ-140 turidagi 50 mm qalinlikdagi mineral paxta plitalari bilan issiqlik izolyatsiyasi amalga oshiriladi, undan so‘ng turli rangdagi dekorativ shpatlyovka qo‘llanadi.
- Bezash “Travertin” uslubida bajariladi.
- Sokol qismi – tashqi bo’yoq bilan bo’yaladi.

2-blok:

Arxitektura-rejalashtirish topshiriqnomasiga asosan loyihalashtiriladigan 5 qavatli turar joy binosi bitta kirish joyi (pod’ezd)dan iborat bo‘lib, yerto’lali. Uyning yerto’lasi yashash uchun mo’ljallanmagan, omborxona sifatida foydalanishga xonalar ajratilgan. Yerto’la birinchi qavat pol sathidan – 3,3 m chuqurlikda joylashgan. Binoning 1-5-qavatlari kirish qismi (pod’ezd)da 4 tadan xonadon loyihalashtirilgan. Loyihada turar-joy binolari nomutanosib shaklda bo’lib, o’lchamlari rejada 16,6 m x 19,8 m.ni tashkil etadi. Qavatlar balandligi pol sathidan shiftgacha - 2,7 m. Turar joy binosining qavat maydonida 1 ta 3 xonali va 3 ta 2 xonali xonadonlar loyihalashtirilgan. Loyihalanadigan binoda 20 ta xonadon joylashgan.

Binoning 5 ta 3 xonali xonadonlarida kirish qismi, 2 ta yotoqxona, umumiy xona, oshxona, xojatxona va yuvinish xonasi loyihalashtirilgan. Binoning 15 ta 2 xonali xonadonlarida kirish qismi, yotoqxona, umumiy xona, oshxona, umumiy sanuzel loyihalashtirilgan Binoning poypesh (tsokol) qismi balandligi - 1,5 m. Qavatlarga chiqib tushish ichki zina orqali amalga oshiriladi. Bosh reja loyihasida atrofni obodonlashtirilgan va ko’kalamzorlashtirish loyihasi ishlab chiqilgan. Yengil avtomashinalar uchun avtoturargoh, bolalar o’ynash maydonchalari, chiqindilarni saqlash maydonchasi, dam olish ayvonchalari joylashtirilgan.

Tashqi pardozlash:

- PPJ-140 turidagi 50 mm qalinlikdagi mineral paxta plitalari bilan issiqlik izolyatsiyasi amalga oshiriladi, undan so‘ng turli rangdagi dekorativ shpatlyovka qo‘llanadi.
- Bezash “Travertin” uslubida bajariladi.
- Sokol qismi – tashqi bo’yoq bilan bo’yaladi.

! Ichki pardozlash ishlari loyihaning 2-bosqichida amalga oshirilishi ko’zda tutilgan.

3.2. Zilzilabardoshlik yechimi.

Konstruktiv yechimlari – rigellari ortogonal yo’nalishda bo‘lgan qattiqlik diafragmasiga ega ko‘p qavatli ramali, kompleks konstruktsiyadan iborat. Binolarning tashqi devorlari 380 mm qalinlikdagi o’tda pishirilgan g’isht bo’lib, mineral paxta plitali issiqlik izolyatsiya materiali va fasad bo’yoq materiallaridan foydalanilgan.

Loyihalashtirishda quyidagi qurilish materiallari va konstruktsiyalaridan foydalanilgan:

- Poydevorlar – monolit beton, sinfi V15;
- Devorlar – g‘ishtli, II toifa g‘isht terimi, M50 eritmada;
- Peregorodkalar – qalinligi 120 mm, M50 eritmada g‘ishtli;
- Jumpaklar va balkalar – monolit beton, sinfi V15;
- APM (anti-seysmik kamar) – monolit beton, sinfi V15;

- Serdetchniklar (yadro elementlari) – monolit beton, sinfi V15;
- Ramalar – monolit beton, sinfi V20;
- Qavat oralig‘i va yopmalar – yig‘ma temir-beton ko‘p bo‘shli plitalar, UTR 46.1-95 bo‘yicha;
- Issiqlik izolyatsiyasi – bazalt tolali mineral plitalar, $\gamma = 120$ kg/m³, qalinligi 50 mm (ikki qatlamda) – jami 100 mm;
- Tom qoplamasi – profil qilingan qoplama, yog‘och latalarga o‘rnatiladi;
- Pol qoplamalari – 2.244–1 seriyasi, 1-sonli nashrga muvofiq;
- Eshiklar – zavodda tayyorlangan metall, PVX va MDF dan;
- Oynalar – PVX dan;
- Fortochka – PVX dan;
- Vitrina – PVX dan.

Barcha temir profildan yasalgan ustun, tasmalar, konstruktsiyalar korroziyadan (zanglashdan) saqlash maqsadida moyli bo‘yoq bilan ikki marotaba bo‘yaladi. Barcha yog‘ochli materiallar, konstruktsiyalar yong‘inga qarshi himoya moddalari bilan ishlanadi va qoplanadi.

3.3. Binoning energiya samaradorligini oshirish uchun quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

- devorlar – issiqlik saqlovchi mineral paxtali bazalt tolali plitalar, PPJ 120–140 markali, qalinligi
50 mm;
- tom qismi (issiqlikni saqlash) – bazalt tolali mineral plitalar, $\gamma = 120$ kg/m³, qalinligi 50 mm (ikki qatlamda) – jami 100 mm;
- pollar – issiqlikni saqlash uchun ko‘piklantirilgan polietilendan tayyorlangan PPI-M 20 markali plitalar, qalinligi 10 mm o’rnatish;
- binoni yoritishda elektr tejash uchun LED lampalari va LED yoritgichlar o’rnatish.
- binolarning tom qismida qo’shimcha elektr manbai bilan ta’minlash sifatida zamonaviy turdagi jami 20 kVt.li quyosh panellari o’rnatilishi ko’zda tutilgan.

3.4. Bosh reja (Genplan).

Loyihalanadigan bino inshoot: Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahar, Istiqlol MFY, 6-mitti tuman dahasi hududidan 5 qavatli turar joy binolari qurilishi (2 dona). Loyihada 5 qavatli turar-joy binolarini loyihalashtirish va qurish ko’zda tutilgan. Bundan tashqari hududda avtoturargohlar, bolalar maydonchasi, axlat uchun konteynerlar maydoni va yashil maydonchalar rejalashtirilgan.

Loyihaviy turar joy hududining umumiy maydoni 1358,0 m^2. Hudud maksimal darajada obodonlashtiriladi va ko’kalamzorlashtiriladi.

Bosh reja ko’rsatkichlari:

- Umumiy maydon - 1358,0 m^2
- Qurilish maydoni - 1358,0 m^2
- Ko’kalamzorlashtirish va qoplama maydoni - 1150,0 m^2

3.5. Nogironligi bo‘lgan shaxslarga sharoitlar.

Imkoniyati cheklanganlar uchun "Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida" gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PQ-266-son qarori asosida va ShNQ 2.07.02-24 «Qurilish obyektlarini nogironligi bo‘lgan va hayot faoliyati cheklangan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish» ga muvofiq loyihada chora-tadbirlar ishlab chiqilgan, shundan asosiylari:

- Obyekt hududida loyihalanadigan avtoturargohlardagi avtomobil o‘rinlarining umumiy sonidan 14 foizi nogironligi bo‘lgan shaxslarning avtomobillari uchun ajratilgan;

- Bino va inshootlarning kirish qismida o‘rindiqli aravachalardagi nogironligi bo‘lgan shaxslarning kirishi va ularni evakuatsiya qilinishi uchun panduslar bilan jihozlangan. Hassa yoki oyoq sirpanib ketishini oldini olish uchun pandus marshlarining chetlarida, shuningdek 0,45 m dan ortiq balandlik qiyaligida va gorizontal yuzaning chetlarida 15–20 sm balandlikdagi bortlar nazarda tutilgan;
- Eshiklar, zinalar va panduslarga chiqish joylari oldidan 0,6 m masofada ogohlantiruvchi taktil qoplamalar bilan qoplangan va maxsus ranglar bilan ajratib ko’rsatilgan;
- Nogironligi bo’lgan shaxslar yuqori qavatga ko’tarilishi uchun ko‘tarish moslamasi o’rnatilgan, ko‘rishda va eshitishda nuqsoni bo‘lgan shaxslar talablari hisobga olinib, ma’lumot signalizatsiyalarining turli, tovushli va chiroqli moslamalar o'rnatilgan.

3.6. Yong’inga qarshi tadbirlar.

Binoning yong’in xavfsizlik toifasi II. Loyihada evakuatsiya uchun yetarli darajada yo’llar, yong’in va portlash xavfsizligini ta’minlash uchun tadbirlar ko’zda tutilgan. Tashqi yong’inni o’chirish yong’inga qarshi rezervuardan hamda mavjud gidrantlar orqali amalga oshiriladi.

Loyihaning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari:

1-blok:

- Qurilish hajmi jami - 7344,4 m^3
- shundan: yerto’la qismi - 1040,04 m^3
- Umumiy maydoni - 1278,6 m^2
- shundan: yerto’la maydoni - 385,2 m^2
- Qurilish maydoni - 341,6 m^2
- Quvvati - 20 xonadon

2-blok:

- Qurilish hajmi jami - 6977,7 m^3
- shundan: yerto’la qismi - 887,43 m^3
- Umumiy maydoni - 1198,65m^2
- shundan: yerto’la maydoni - 328,68 m^2
- Qurilish maydoni - 321,55 m^2
- Quvvati - 20 xonadon

Ob’ektning QQS siz, buyurtmachining xarajatlarisiz jami qiymati (2ta turar-joy binosi uchun):

- Joriy narxlardagi smeta qiymati - 13 704 460 600 so‘m.
- Qurilish ishchilarning mehnat vaqti - 66 705,03 odam/soat.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

Isitish va shamollatish tizimi.

4.1. Muhandislik uskunalar.

Isitish va shamollatish bo’limi: Isitish tizimi bir quvurli gorizontal bo'lib, sovutish suvi bilan bog'liq nasosning aylanishi bilan harakatga ega. O'rnatish uchun "Электрический котел" brendining individual elektrli qozonlari qabul qilinadi. Shamollatish havo berish va havoni so’rish orqali tabiiy va majburiy yo’l bilan bajariladi. Toza havo xonalarga deraza va eshiklar orqali amalga oshiriladi. Oshxonadan havoni surish zont va ventilyator bilan bajariladi.

Ichimlik va oqova suv bo’limi: Loyiha ichimlik suvi uchun yagona tizimni o'z ichiga oladi. Bino kirish tuguni xonasida nasos qurilmasi ko'zda tutildi va Q=10м^3/soat, H=43м, N=1,50 kVt tipidagi nasoslar loyihalangan. Bakteritsid filtri nasos stansiyasidan keyin o`rnatiladi.

Hovuz suvni turar-joy binolariga yetgazib berishdan oldin dezinfeksiya qilish uchun mo`ljallangan; imkoniyati-2$m^3$/soat, ulanishi- dn75 mm, korpus materiali-zanglamaydigan po`lat. Sovuq va issiq suv tizimlari PPRS Ø63-50-40-32-25-20 mm polipropilen quvurlari bilan loyihalangan. Issiq va sovuq suv ta'minoti tizimlari Oqova suv tarmoqlari quvurlarini tashqi tarmoqlar quduqlariga qarab nishablikda loyihalangan. Oqova suv tarmoqlari polietilen Ø50, 100 ГОСТ 22689,3-89 Ø50-100 quvurlaridan foydalanilgan. Bino konstruksiyalari orqali o'tadigan oqova suv quvurlarini plastmassa gilzalar bilan qoplash va ular orasini yonmaydigan materiallar bilan to'ldirish kerak. Gilzaning tashqi diametri 200 mm katta bo'lishi kerak.

Ichki elektr tizimi bo'limi: Elektr texnik qismi loyiha hujjatlari (arxitektura-qurilish, texnologik, sanitariya-texnik bo'limlari) asosida va SHNQ 2.04.17-2019 talablari asosida ishlab chiqilgan.

Binolarni yoritish normalari SHNQ 2.01.05-24 "Tabiiy va sun'iy yoritish" me'yorlariga muvofiq qabul qilingan. Elektr yuklamalarining hisob-kitoblari SHNQ 2.04.17-2019 talablariga asosan bajarilgan. Hisoblangan maxsus yuklamalar 37°C dan yuqori hisobiy haroratga ega aholi punktlaridagi kvartiralar uchun elektr plitalari va maishiy konditsionerlar mavjudligiga qarab 2-jadvalga muvofiq tanlangan.

Elektr tarmoqlari 380/220 V kuchlanishli, neytral nuqtasi qattiq yerga ulangan uch fazali, besh simli tizim sifatida qabul qilingan.

- Elektr ta'minoti kategoriyasi - III. (VRU-1), (VRU-2) - VRU-1-24-54UHL4 turi.
- Hisobiy quvvat: Pr = 243,8 kVt.
- Hisobiy tok: I hisob.1 = 406,3 A.

Kirish-taqsimlash qurilmasi (VRU) podval qavatida joylashtirilgan. Bir kvartira uchun iste'mol quvvati - P = 11 kVt, 3 fazali.

Har bir qavat maydonchasida qavat elektr shkaflari (svaroqli metall korpus) o'rnatiladi. U uchta bo'limdan iborat: kirish-hisoblash, taqsimlash va past kuchlanishli uskunalar bo'limlari. Kirish-hisoblash hamda taqsimlash bo'limlarida kvartiralar soniga mos ravishda hisoblagichlarni o'rnatish uchun perforatsiyalangan relslar joylashtiriladi. Shu bo'limda magistral liniyani uzish apparatini o'rnatish imkoniyati nazarda tutilgan. Taqsimlash bo'limida guruh liniyasi apparatlari uchun DIN-reyka hamda N va PE shinalarini o'rnatish elementlari mavjud. Bo'limlar operativ panel bilan jihozlangan.

Past kuchlanishli uskunalar bo'limi tele- va radio tarmoqlar, telefon liniyalari, xavfsizlik signalizatsiyasi, domofon va shu kabi tarmoqlarni yotqizish uchun perforatsiyalangan profillar bilan ta'minlangan.

Shkaflar turi: ShE-4-1 36, har biri 4 ta kvartira uchun, kirish va taqsimlash avtomatlari hamda elektron hisoblagichlari EX-518 bilan jihozlangan. Qavat elektr shkaflaridan har bir kvartiraga 7, 8 va 9-guruhlar bo'yicha simlar tortiladi, har bir guruh uchun bitta avtomat o'rnatiladi. Har bir kvartirada simsiz, batareyali eshik qo'ng'irog'i o'rnatiladi. Xonalarda uch kontaktli rozetkalar, osma va devor lampochka patronlari, o'chirgichlar o'rnatilishi nazarda tutilgan. Loyihada, shuningdek, 16 A tok kuchlanishiga mo'ljallangan 3 ta yerga ulangan kontaktli rozetkalar ham qabul qilingan.

Magistral tarmoqlar quyidagi kesimlarda VVGng(A)-LS markali kabel bilan bajariladi: 5×70 mm^2, 5×50 mm^2, 5×6 mm^2 va 3×6 mm^2. Elektr energiyasi iste'molchilarini nolga ulash polietilen trubalar orqali qavatlar bo'ylab, gofra shlang va kabel kanallari orqali amalga oshiriladi. Guruh tarmoqlari (kvartiralarda) VVGng-LS markali, mis o'tkazgichli, 3×2,5 mm^2 va 3×1,5 mm^2 kesimdagi kabel bilan, g'isht suvoq ostida va yopma panellaridagi bo'shliqlarda yashirin tarzda yotqiziladi.

4.2. Muhandislik tarmoqlari.

Issiqlik ta’minoti. Ushbu chizmalar albomi kvartiralarni isitish uchun individual elektirli qozonlarni o'rnatish uchun standart loyihalarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan. Loyiha ko'p qavatli turar-joy binolarida joylashgan 1-5 xonali kvartiralar uchun amalga oshirilgan. O'rnatish uchun "Электрический котел" brendining individual elektirli qozonlari qabul qilinadi. Qozonxonalar isitiladigan lojikalar yoki oshxonalarga o'rnatiladi.
- Qozonning texnik tavsiflari - BS3;
- isitish tizimlari uchun devorga o'rnatilgan elektirli qozon, isitish tizimlari uchun aylanma nasosli;
- qozon modeli -BS3 tipidagi qozon mo'ljallangan.
1. Isitish loyihasi KMK 2.04-05-97* “Isitish, shamollatish va havoni tozalash” ga muvofiq amalga oshirildi.
2. Alyuminiy radiatorlar H=575mm (1sek=0,175kVt) isitish moslamalari sifatida ishlatiladi.
3. Turar-joy binolarining 1-qavatidagi savdo maydonchalarini isitish va ventilyatsiya qilish ustun tipidagi konditsionerlardan amalga oshiriladi.
4. PN-25 da kuchlanish tizimlari uchun barqaror polipropilen quvurlar va armatura. Quvurlar devorga o'tkaziladi. Isitish tizimi bir quvurli gorizontal bo'lib, sovutish suvi bilan bog'liq nasosning aylanishi bilan harakatga ega. Quvurlarning qiyaliklari qozon tomonga qarab kamida 0,002 ni tashkil qiladi. Suv qaytib quvur liniyasidan poldagi isitish tizimidan 15kch18p2 Ø20mm valf orqali drenajlanadi. Har bir isitish moslamasida Mayevskiy kranlari orqali havo chiqariladi.
5. Yashash xonalari harorati + 20°C, oshxonada + 18°C ShNK 2.08.01-05 "Turar-joy binolari" bo'yicha.

Shamollatish tabiiy impuls bilan ta'minlash va chiqarish orqali qabul qilinadi. Egzoz shamollatish kanallari orqali amalga oshiriladi. Oqim ventilyatsiya va deraza teshiklari orqali tashkillashtirilmagan. Isitish va shamollatish tizimlarini o'rnatish KMK 3.05.01-97 ga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Tashqi ichimlik va oqova suv ta’minoti bo’limi: “Qashqadaryo suv ta’minoti” AJning 20.10.2025-yil № 394-sonli texnik shartiga asosan loyihadagi bino va inshootlarni ichimlik suv ta’minoti "Istiqlol" MFY hududdan o'tgan D-160 mm.li ichimlik suv quvuri qudugig‘a ulanish orqali amalga oshiriladi. Ulanadigan ichimlik suv quvuri diametri: gidravlik hisob-kitoblarga ko‘ra amalga oshirilishi, ichimlik suv tarmog‘iga ulangan nuqtaga kuzatuv qudug‘i qurilishi va zulfin (zadvijka) o‘rnatilishi, inshootdan chiqish qismiga intellektual masofadan ma’lumotlarni uzatuvchi aqlli (smart) suv hisoblagichlar o‘rnatish hamda masofadan ma’lumot uzatish aloqa tizimi “Qashqadaryo suv ta’minoti” AJ ning yagona billing bazasi bilan integratsiya qilinishi tavsiya etilgan.

Oqova suv tarmog‘iga ulanadigan joy: Qarshi shahar, "Istiqlol" MFY, 6-mitti tuman dahasi hududidan o’tgan D-300 mm oqova suv quvuri qudug‘i hisoblanadi. Bino va inshootlar oqova suv ta’minoti shu orqali amalga oshiriladi.

Tashqi elektr tarmoqlari bo’limi: Qarshi shahar, Istiqlol MFY, 6-mitti tuman dahasi hududidan loyihalashtirilayotgan 5 qavatli uylarning elektr ta’minoti “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ “Qashqadaro hududiy filiali” ning 20.10.2025-yil № 10401118629-sonli texnik sharti asosida bajariladi. Obyektning elektr ta’minoti uchun GKTP rusumli 10/0,4 kV transformatorli nimstansiya o‘rnatilishi, loyihalangan transformatorli nimstansiyaning elektr ta’minoti 10 kV 6-sonli TQdan chiquvchi “Obi Hayot-1” fideridan ishlab turgan 494-sonli 10/0,4 kV transformatorli nimstansiyaning 10 kV yuqori kuchlanish tomonidan 10 kV KEUY bilan bajarilishi tavsiya etilgan. Hududni tashqi yoritish zamonaviy turdagi quyosh panellari bilan jihozlangan “LED” chiroqlari o’rnatilgan.

Binolarning tom qismida qo’shimcha elektr manbai bilan ta’minlash sifatida zamonaviy turdagi
20 kVt.li quyosh panellari o’rnatilishi ko’zda tutilgan.

Gaz ta’minot qismi: “Hududgazta’minot” AJ ning 02.11.2025-yil № 3608-7369-sonli xabarnomasiga asosan, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-apreldagi 205-sonli qarori 7-bandi 3-xatboshi “uch yil muddatga hududlarda AGTKShni loyihalashtirish va qurish, boshqa turdagi yoqilg‘i quyish shoxobchalari faoliyatini siqilgan gaz to‘ldirishga o‘zgartirish hamda yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘zda tutmaydigan, texnologik jarayonlarida tabiiy gazga muqobil yoqilg‘i turidan foydalanish imkoniyati mavjud bo‘lgan yuridik shaxslarga tabiiy gaz tarmoqlariga ulanish uchun texnik shartlar berishga moratoriy e’lon qilinganligi, 4-xatboshida tabiiy gaz yetib borishi qiyin bo‘lgan hududlar muqobil bo‘lgan energiya manbalariga o‘tkazilishi hamda 9-bandida 2025-yil 1-maydan yangi qurilayotgan ko‘p kvartirali uylar va ijtimoiy soha obyektlariga tabiiy gaz tarmog‘iga ulanish uchun texnik shart berilishi to‘xtatilishi belgilangan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Ishchi loyiha (bosh reja, fasad va loyiha rejasi) Qashqadaryo viloyati qurilishi va uy-joy kommunal xo’jaligi bosh boshqarmasi, Arxitektura va Shaharsozlik kengashi ishchi organining 11.11.2025-yildagi № 226776588-sonli xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **13 859 882 300** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati
155 421 700 so'mga kamaytirilib, **13 704 460 600** so‘mni tashkil etadi. Xususan:
Qurilish-montaj ishlari: **11 394 680 628** so'm
Asbob-uskunalar: **215 711 145** so'm
QQS: **1 644 535 272** so'm

6.1. Ekspertiza jarayonida mahalliy ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo’shimchalar kiritiladi.

- loyihada arxitektura-qurilish yechimlari ko’rib chiqildi, qo’shimcha aniqlik kiritilgan chizmalar taqdim etildi, e’tirozlar ish jarayonida mavjud normativ hujjatlar asosida to’g’irlandi.
- ekspertiza ko’rigiga loyihaviy yechimlar izohsiz taqdim etilgan, izohlar kiritildi.
- loyiha-smeta tarkibiy qismini tasdiqlangan loyihalashtirish topshirig’i qayta buyurtmachi bilan ko’rib chiqildi va qayta taqdim etildi.
- loyihani aniq maydonga bog’lash (privyazka) jarayonida iqlim va fizikaviy geologik ma’lumotlar injenerlik geologiya zilzilabardoshlik, sanitariya, imkoniyati cheklanganlar uchun qulaylik va boshqa qoidalarga amal qilgan holda amalga oshirilishi lozim.
- Inshoot qurilishida mualliflik nazorati o’rnatilsin.

6.2. Muhandislik qurilmalari va ta’minoti bo’yicha.
IET,YOXT, ichimlik va oqova suv elektr ta’minoti bo’limlari.
Muhandislik tarmoqlari korxonalari bilan kelishgan holda, texnik shartlarga amal qilgan holda bajariladi.

6.3. Smeta qismi bo’yicha.

Mutaxassis tasdiqlangan ishchi loyihaning smeta hujjatlarini ko’rib chiqdi. Xarajatlar darajasi tekshirildi, ish haqi, mashina va mexanizmlar xarajati, asosiy qurilish materiallari SHNK 4.02.00-05 normalariga muvofiq “Uslubiy tavsiyalar” va SHNK 4.01.16-09 asosida

amalga oshirilgan ob’ekt narxi amaldagi aniqlash hisob-kitob asosida ko’rib chiqildi.

Quruvchi-ishchilarning o’rtacha ish haqi ijtimoiy sug’urta hisobga olgan holda 28 915,90 so’mni tashkil etadi, pudratchining boshqa xarajatlari 18,00 % ni tashkil etadi. Qurilish materiallari va konstruktsiyalarning narxlari “O’zbekiston Respublikasining qurilish sanoati” da foydalanadigan moddiy-texnika resurslari uchun amaldagi narxlar katalogi bo’yicha mintaqadagi o’rtacha me’yorlarni hisobga olgan holda tekshirildi.

Buyurtmachi tomonidan amaldagi narxlarda taqdim etilgan obyekt qurilishining umumiy qiymati QQS siz va buyurtmachining xarajatisiz (2ta turar-joy binosi qurilishi uchun) 13 704 460 600 so’m.

Yakuniy narx buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so’ng, nazorat o’lchovi natijalari asosida aniqlanadi. Buyurtmachi loyiha-smeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgillangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

7. Xulosalar.

7.1. Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahar, Istiqlol MFY, 6-mitti tuman dahasi hududidan 5 qavatli turar joy binolari qurilishi (2 dona) uchun loyiha-smeta hujjatlari ekspertiza tekshiruv natijalari hisobga olgan holda ko’rib chiqilib, quyidagi texnik iqtisodiy ko’rsatgichlar bilan kelishish va tasdiqlashga tavsiya etiladi:

Loyihaning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari:

1-blok:

- Qurilish hajmi jami - 7344,4 m^3
- shundan: yerto’la qismi - 1040,04 m^3
- Umumiy maydoni - 1278,6 m^2
- shundan: yerto’la maydoni - 385,2 m^2
- Qurilish maydoni - 341,6 m^2
- Quvvati - 20 xonadon

2-blok:

- Qurilish hajmi jami - 6977,7 m^3
- shundan: yerto’la qismi - 887,43 m^3
- Umumiy maydoni - 1198,65m^2
- shundan: yerto’la maydoni - 328,68 m^2
- Qurilish maydoni - 321,55 m^2
- Quvvati - 20 xonadon

Ob’ektning QQS siz, buyurtmachining xarajatlarisiz jami qiymati (2ta turar-joy binosi uchun):

- Joriy narxlardagi smeta qiymati - 13 704 460 600 so‘m.
- Qurilish ishchilarning mehnat vaqti - 66 705,03 odam/soat.

7.2. Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar loyiha-smeta hujjatlari “SHAHRI KESH EKSPERTIZA GROUP” MCHJ talablarini va ko‘rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish loyihachiga yuklanadi. Inshoot qurilishida mualliflik nazorati o‘rnatilsin.

7.3. Qurilish ishlarini amalga oshirish “Qashqadaryo viloyati qurilish nazorat inspektsiyasi” tomonidan berilgan ruxsatnoma asosida amalga oshirilsin.

7.4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi 579-sonli qaroriga muvofiq 1-ilovasi, 3-bob, 29-bandiga asosan “Ekspertizaga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma’lumotlarni haqqoniyligini va qabul qilingan

loyiha yechimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir”.

7.5. Ishchi loyiha O’zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi va uy-joy kommunal bosh boshqarmasi Qashqadaryo viloyati Davlat arxitektura-qurilish nazorat inspeksiyasidan ro’yxatdan o’tkazilsin.

Bosh mutaxassis: Norqobilova D

Ekspert mutaxassislar:
Bosh arxitektor: Narzullayev A.
Konstruktor: Tirkavov Sh.
Tarmoq muhandisi: Murodov Sh.
Yong'in xavfsizligi bo'yicha muhandis: Sayibnazarov B.
Bosh elektrik: Do'labov J.